



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Boymurotov Asqarali Burgutovich

*Toshkent moliya instituti akademik litseyi  
Matematika va informatika fani o'qituvchisi  
Gentramokre@gmail.com*

## TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY FAZILATLARINI HISOBGA OLISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

**Annotatsiya.** Ta'lrim jarayonida o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini hisobga olishning eng muhim bo'g'ini ularning o'quv-bilish faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish yoki cheklashdir. Maqolada o'quvchilarga o'zlarining qulay imkoniyatlari va afzalliklarini ro'yobga chiqarish, uzoq vaqt davomida diqqatni jamlash qobiliyatini shakllantirish, harakatlarni puxta bajarishga moyillik haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Fazilat, ma'lumot, shaxs, qobiliyat, imkoniyat, natija, xususiyat, qoida, faoliyat.

## ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УЧЕТА ЛИЧНОСТНЫХ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

**Аннотация.** Важнейшей частью учета личностных и профессиональных качеств обучающихся в образовательном процессе является устранение или ограничение недостатков в их учебной деятельности. Статья рассказывает учащимся о реализации своих благоприятных возможностей и преимуществ, формировании способности к длительной концентрации внимания, склонности к тщательному выполнению действий.

**Ключевые слова.** Добротель, информация, личность, способность, возможность, результат, особенность, правило, деятельность.

## PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL BASIS OF ACCOUNTING PERSONAL AND PROFESSIONAL QUALITIES OF STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

**Annotation.** The most important part of taking into account the personal and professional qualities of students in the educational process is the elimination or limitation of shortcomings in their educational activities. The article tells students about the realization of their favorable opportunities and advantages, the formation of the ability to concentrate for a long time, and the tendency to carefully carry out actions.

**Keywords.** Virtue, information, personality, ability, opportunity, result, feature, rule, activity.

**Kirish.** Mamlakatimiz iqtisodiyoti va jamiyatining o‘zgarishi mehnat bozori talab qilayotgan kasblar qatorida, pedagogik faoliyat, o‘qituvchi kasbining ijtimoiy obro‘sni va ijtimoiy mavqeida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda va shuning uchun muayyan kasb tanlashning qiymatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Ishlab chiqarish jarayonining kengayishi va murakkabligi, bir tomondan, ta’lim xizmatlari bozorida taklif etilayotgan kasblarning ko‘pligi o‘smirlarning ushbu kasblar haqida xabardorligi pastligi bilan birga bo‘lgan kasbiy variativlikka olib keldi. Yoshlar ijtimoiy o‘zgarishlarni osonroq boshqarishadi, chunki ular qadriyatlar tizimini buzishi va xatti-harakatlar standartlarini qayta qurishlari shart emas.

Talabalarning faoliyati va xulq-atvorigagi individual qarorlarni tavsiflashda muhim jihatlardan biri shundaki, bu farqlar individuallikning turli darajalari bilan bog‘liq xususiyatlarning birgalikdagi ta’siri bilan bog‘liq bo‘lib, sog‘liq xususiyatlaridan tortib, talabalarning kasbga munosabatini tavsiflovchi xususiyatlarga bog‘liq. Ular ijtimoiy me’yorlarga, jamoadagi o‘z pozitsiyalariga intilishadi.

O‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi ularning ijtimoiy-shaxsiy qiziqishlarining kasbiy yo‘nalish kasb etishi, mustaqil fikrashlari, ijodkorliklari, faollikkleri, munosabatlarining chuqurlashib, boyib borishi, xarakter va dunyoqarashlarining turg‘unlashuvi hamda o‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyojlarining shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflandi. Bo‘lajak mutaxassis uchun ta’lim olish jarayoni – bu insonda pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda kasbiy jihatdan ahamiyatli sanalgan sifat, bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish hamda o‘z-o‘zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. O‘quvchi ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va kelajak kasbiy faoliyatini tashkil etishda hamda samarali foydalanish kabi holatlarni o‘zida mujassam ettiradi. Pedagogik-psixologik faoliyat bilan bog‘liq qarash, qadriyat hamda motivatsiyalar mohiyatan o‘zgarib, takomillashib boradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘quvchilarga samarali ta’lim berish, mustaqil ta’lim jarayonida ularga qulay imkoniyatlar va afzalliklar yaratish, kelajak kasbiy faoliyat uchun aniq maqsadni belgilash hamda diqqatni jamlash qobiliyatini shakllantirish shuningdek, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimini takomillashtirishning nazariy va metodik asoslari R.H.Djurayev, U.I.Inoyatov, Q.T.Olimov, X.F.Rashidovlar tomonidan [1, 2, 3, 4] tadqiq etilgan. Tadqiqotchi P.A.Rudik esa, o‘quvchilarga bilim berishda «Shaxsning psixologik xususiyatlari inson faoliyatida qo‘yadigan maqsadlarida, ushbu maqsadga erishish usullarida, faoliyat jarayonida aloqada bo‘luvchi boshqa insonlar bilan munosabatida o‘z ifodasini topadi. Bu kabi barcha xususiyatlar tasodifiy emas. Ular shaxsning mehnatda qaror topishini ifodalaydi, shuningdek, ma’lum darajada turg‘un xarakterga ega bo‘lgan, insonning faoliyatiga maqsadga yo‘naltirilganlik baxsh etuvchi intilishlari, qiziqishlari hamda dunyoqarashida o‘z aksini topadi», deb hisoblaydi [5].

A.V.Suvorovning fikriga ko‘ra, shaxsning shakllanishida inson faolligiga munosabatini belgilab beruvchi mayllar tizimining tarkib topishi namoyon bo‘ladi [6]. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini aniqlash tajribasiga ko‘ra, o‘quvchilar turli fazilatlar, o‘ziga xos xussiyatlarga ega. O‘qituvchilar tomonidan bildirilgan mulohazalarda, o‘quv materialini o‘zlashtirishga ta’sir qiladigan, turli xil usullardan foydalanganda asosiy e’tiborni qaratadigan va o‘ziga xos xususiyatlariiga ta’sir qiluvchi pedagogik-psixologik portretini o‘rganish hamda shu asosda ularni yo‘naltirish kerak bo‘ladi. Shularni inobatga olib, tavsiya etilgan individual yo‘naltirilgan texnologiyalar, maxsus xususiyatlar ro‘yxatiga qo‘srimcha ravishda, o‘qituvchilarga so‘rovnoma bo‘rsatilmagan jihatlarini belgilash imkoniyatini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O‘quvchilarning ta’lim sifatini baholash, monitoringini olib borish maqsadida o‘tkaziladigan so‘rovnoma mazmuni ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini hisobga olishning psixologik-pedagogik asoslarini ochib berishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shu ma’noda, o‘qituvchilar o‘quvchilarning turli fazilatlarini hisobga olishlari va bu jarayon turli darajadagi individuallashtirish xususiyatlarining faoliyatga aylanishi, olingan natijalarga bevosita ta’sir qilish faktini qamrab olish kerak.

O‘qituvchilar asosan o‘quvchilarning o‘quv bilish faoliyatiga munosabati yuzasidan tahlillari, bildiruvchi xususiyatlari, ularning genetik moyilliklarining (masalan, aql-idrok, temperament, tipologik xususiyatlari) ahamiyatini ba’zan yetarlicha baholanmaganligi ta’kidlanadi. Shu bois o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini belgilab beruvchi pedagogik –psixologik portreti asosida ularning kasbiy yo‘nalganligi ta’minlanadi.

Ushbu qoidalar xususan, o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi egallagan bilim darajasiga ko‘ra turli xil fazilatlarining o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar bilan tasdiqlangan.

1-jadval

O‘quvchilarning ta’lim jarayoni muvaffaqiyatini ta’minlovchi fazilatlari

T/r	O‘quvchilarning fazilatlari	O‘rtacha o‘rni
1	Dastlabki bilimlar	1
2	Qiziqish	2
3	Motivatsiya	3
4	Intellekt	4
5	Temperament	5
6	Diqqat	6
7	Intizom	7
8	Mehnat	8
9	Tozalik	9
10	Jismoniy rivojlanish	10

Shuni yodda tutish kerakki, 1-jadvalda turli fanlarni o‘qitishda namoyon bo‘ladigan fazilatlar individuallikning turli darajalari bilan bog‘liq xususiyatlarning faoliyatga ta’sir qilishini shu asosda baholash mumkin. Shuning uchun bu o‘zaro ta’sir mexanizmlarini aniqlash o‘quvchilarning xatti-harakati va faoliyatidagi individual farqlarning psixologik asoslarini ochib berishning muhim vazifalaridan biri, deb hisoblash mumkin.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini hisobga olishning eng muhim bo‘g‘ini ularning o‘quv-bilish faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish yoki cheklashdir. Shaxsiy va kasbiy fazilatlarini hisobga olishning yana bir muhim jihat - talabalarga o‘zlarining qulay imkoniyatlari va afzalliklarini ro‘yobga chiqarishga yordam berish: uzoq vaqt davomida diqqatni jamlash qobiliyati, reaksiyalarning yuqori tezligi, harakatlarni puxta bajarishga moyillik va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Ba’zi natijalarni umumlashtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, o‘quv-bilish faoliyatida o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini hisobga olish - bu ta’limning asosiy shaklini tashkil etishga xizmat qiladigan va o‘rganish samaradorligini oshirishdan tashqari, ijobjiy aqliy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik muammodir.

**Tahlil va natijalar.** Tashabbuskor, ijodiy, professional mobil, funksional savodli shaxsni shakllantirish umumta’lim mакtablarining boshlang‘ich sinflaridan boshlanadi. Aynan mакtabda o‘quvchining qiziqish va mayllari shakllanadi, ta’limni

davom ettirish yo‘li aniqlanadi. Maktabda ongli ravishda tanlangan kasbiy yo‘l kelajakda uning o‘zini o‘zi anglashining muhim shartidir.

Haqiqiy maktab amaliyotiga ko‘ra ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini hisobga olish maqsadlari quyidagilardan iborat: o‘quvchilarning kasbiy yo‘nalishi va o‘z keajak kasbiy faoliyati, taqdirini o‘zi belgilashi uchun shart-sharoitlarni ta’minalash, individual moyillik va ehtiyojlar, ijtimoiy va kasbiy o‘zini o‘zi belgilashga tayyorligini oshirish. Bu maqsadlar ayni paytda umumiy va kasb-hunar ta’limi o‘rtasida uzviylikni ta’minalashga ham xizmat qiladi.

Shunday qilib, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini hisobga olishning psixologik-pedagogik asoslari quyidagilardan iborat, degan xulosa chiqarish mumkin:

1. Aksariyat o‘smirlar o‘z qobiliyatlari va qiziqishlarini, o‘z shaxsiy va kasbiy fazilatlarini aniqlashlariga juda kam ehtiyoj sezadilar.
2. O‘quvchilar ko‘pincha kelajakdagi kasbiy faoliyatni tanlash motivlarini tushunmaydilar.
3. Aksariyat mакtab o‘quvchilarida o‘z shaxsiy va kasbiy fazilatlarini aniqlash uchun tegishli bo‘lgan sifatlar yetarli darajada rivojlanmagan (mas’uliyat, diqqat, mustaqillik va boshqalar).
4. Talabalar o‘z shaxsiy va kasbiy fazilatlarini aniqlash uchun kasblar dunyosi, o‘zлari haqida, o‘z mintaqasining ma’lum kasblarga bo‘lgan ehtiyojlari haqida, tanlagan kasbi bo‘yicha o‘qish va o‘qishni davom ettirishning mumkin bo‘lgan usullari haqida zarur bo‘lgan bilimlarga deyarli ega emas.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini hisobga olishning psixologik-pedagogik asoslari sohasidagi ko‘plab ma’lumotlarga qaramay, bu borada bir qator qarama-qarshiliklar mavjud. Ular:

- Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini hisobga olishda mакtab bitiruvchilarining qobiliyatlarini rivojlantirishga yuqori darajadagi tayyorgarlikni shakllantirish zarurati va bunday rivojlanish imkoniyatlarini ta’minalaydigan usullarning yetishmasligi;
- umumta’lim maktablarida ta’limning an’anaviy shakllari va maktab o‘quvchilarining o‘z taqdirini o‘zi belgilash va kelajak kasbini tanlashga tayyorgarligini rivojlantirish uchun yangi texnologiyalardan foydalanish zarurati o‘rtasida;
- Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini hisobga olishda ularning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar va ularni tayyorlash uchun maxsus dasturlari yo‘qligi va boshqalar.

**Xulosa va tavsiyalar.** Yuqoridagi qarama-qarshiliklarning natijasi ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini hisobga olishda o‘quvchilar

va ularning ota-onalari keyingi kasbiy ta’lim va kasbiy faoliyat sohasini tanlash bosqichida duch keladigan qiyin vaziyatdir.

Ta’lim, tarbiya va rivojlanish bitta umumiy individga uning jamiyatda o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga qaratilgan yagona maqsad bilan ta’sir qiladi. Biroq, rivojlanish individda shu davrga qadar mavjud bo‘lgan elementlarga, ta’lim va tarbiya esa unda hali mavjud bo‘lmagan, biroq, madaniyatda, ijtimoiy axloqda, ma’naviy me’yorlar va insonlar ma’naviy sifatlariga qaratilgan bo‘ladi. Shaxs va individual sifatlar o‘zaro bir-birini to‘ldiradi, shu sababli pedagogikada shaxs tarbiyasi hamda individuallik (o‘ziga xoslik)ni rivojlantirish, ta’lim esa madaniyatni (ijtimoiy tajribani) o‘zlashtirish jarayoni sifatida qaraladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini hisobga olishning psixologik-pedagogik asoslari ta’lim, rivojlanish hamda tarbiya birligida shaxs ontogenezining mohiyatini hamda individning maqsadga muvofiq ijtimoiylashuvi natijasini aks ettiradi.

### Foydalilanilgan abdiyotlar

1. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. ... док.пед.наук. - СПб.: 1995. - 43 с.
2. Иноятов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления контроля качества образования в профессиональном колледже: Дисс. ... докт. пед. наук. – Т., 2003. – 327 с.
3. Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari. Ped.fan.dokt. ... diss. avtoref. – Т., 2005. – 44 b.
4. Рашидов Х.Ф. Особенности развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане. –Т.: Фан, 2004. - 288 с.
5. Рудик П.А. Мотивы поведения деятельности. – М.: Наука, 1988. - 136 с.
6. Суворов А.В. Человечность как фактор саморазвития личности: Автореф. дисс. ... докт. психол. наук. – М.: 1996. - 57 с.
7. Tolipov O‘.Q., Safarova R.G‘., To‘raqulov X.O., Inoyatova M.E., Divanova M.S. Pedagogik atamalar lug‘ati. / R.X.Djurayev tahriri ostida. – Т.: “Fan”, 2008. –58 b.
8. Xoliquov A. Pedagognk mahorat. O‘quv qo‘llanma. T.: «IQTISODMOLIYA» nashriyoti, 2010,-312 bet.
9. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi / Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. – 286 b

10. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya/Oliy ta‘lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashiryoti, 2008. – 311 b.